



ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR UCHUN KOXLEAR IMPLANT APPARATI AHAMIYATI VA KOXLEAR IMPLANTLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA REABLITATSION ISHLAR

To'lanboyeva Dilshoda Zafarjon qizi

NamDU Maxsus pedagogika yo'nalishi

(logopediya) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: tolanboyevadilshoda@gmail.com

Abdulxamidova Gulnoza Nasriddin qizi

NamDU Ta'lim menejmenti kafedراسi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10903233>

Annotatsiya: Maqolada koxlear implantatsiya apparatining tuzilishi va eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolalar uchun ahamiyati, koxlear implantli bolalar bilan reabilitatsion korreksiya jarayonlarini o'rganish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Koxlear implantatsiya, karlik, zaif eshituvchi korreksiya, reabilitatsiya protsessori.

Аннотация: В статье рассматривается строение аппарата кохлеарной имплантации и ее значение для детей с нарушением слуха, изучение процессов реабилитационной коррекции у детей с кохлеарной имплантацией.

Ключевые слова: кохлеарная имплантация, глухота, коррекция нарушений слуха, реабилитация, процессор

Abstract. The article discusses the structure of the cochlear implant apparatus and its importance for children with hearing impairment, the study of rehabilitative correction processes with children with cochlear implants.

Key words: Cochlear implantation, deafness, hearing-impaired correction, rehabilitation, processor

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi PQ-2133-son qarori bilan tasdiqlangan "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi hamda Vazirlar mahkamasi 1999-yil 18-son qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risidagi nizomga muvofiq koxlear implantatsiya operatsiyalarini o'tkazish uchun bemorlarni tanlab olish tartibini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi «Zamin» fondi Vasiylik Kengashining raisi Ziroat Mirziyoyeva tomonidan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun koxlear implant apparati bepul o'rnatiladi. 2020-yilning 1-iyunida «Zamin» fondi eshitish qobiliyati zaif va kar bolalar ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchun koxlear implantlarni o'rnatish bo'yicha har yili 30 ta jarrohlik amaliyotini o'tkazishni nazarda tutuvchi dastur ishga tushirilganini e'lon qildi. Dastur



doirasida iyun-noyabr oylari davomida Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning 200 nafar o'quvchilariga kompleks tashxis ko'rigi o'tkazildi.

Koxlear implant apparati – 1bu eshitish qobiliyatini yo'qotganlar uchun atrofdagi tovushlarni eshitishga imkon beradigon va imkon darajasida yaxshilaydigon elektron qurilma hisoblanadi. Ushbu qurulma ikki qismdan tashkil topgan: ichki qismi bemorning ichki quloq'giga o'rnatiladi, tashqi qismi quloq orqasiga joylashtiriladi joylashtiriladi. Koxlear implant tana uzunligi -32mm, kengligi-24mm, balandligi-5,9 mmni tashkil etadi. Koxlear implantatsiya - bemorda sensorinöral eshitish qobiliyatini yo'qotganda, eshitish vositalarining samarasizligi yoki samaradorligi past bo'lgan hollarda qo'llaniladigan eshitish apparati usuli. Usulning mohiyati bemorning tanasida tashqi mikrofondan keladigan elektr impulslarini asab tizimiga tushunarli signallarga aylantirishga qodir bo'lgan qurilmani o'rnatishdan iborat. Bunday holda, implantning tanasi teri ostiga o'rnatiladi va elektrod majmuasi timpanik bo'shliqdan kokleaning skala timpanasiga o'tkaziladi. Tashqi nutq protsessori (audio protsessor) mikrofon tomonidan qabul qilingan ovozni ma'lumotlarga aylantiradi (signalni qayta ishlash strategiyalariga muvofiq). Ushbu ma'lumotlar va elektr energiyasi induktiv ravishda nutq protsessorining uzatuvchi (ya'ni, koxlear implantning o'ziga) uzatiladi.

Tibbiyot muassasalarida koxlear implantatsiya operatsiyalarini o'tkazish uchun bemorlarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizom ilovasiga muvofiq tasdiqlandi va umumiy qoidalar belgilab qo'yildi:

✚ Koxlear implantatsiya operatsiyalari Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida o'tqaziladi.

✚ Koxlear implantatsiya operatsiyasi bemor bola 5 yoshga to'lganga qadar o'tkazilganda ijobiy natija berishini hisobga olib, budjet mablag'lari hisobiga xarid qilingan implantatlardan samarali foydalanish uchun ular 5 yoshga to'lmagan bolalarga bepul taqdim etiladi.

✚ 5 yoshga to'lgan va undan oshgan bolalar ota-onalari koxlear implant apparatini sotib olishlari mumkin.

✚ Implantat faqat bitta quloq uchun bepul taqdim etiladi.

✚ Bemor bolalar uchun koxlear implantatsiya operatsiyasini o'tkazish va koxlear implantatsiya operatsiyasidan keyingi rehabilitatsiya tadbirlari bepul amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, uning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Eshitish kamchiligini erta aniqlash va tashxis qilish, uni qayta tiklash, bunday bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish logopedni, surdopedagog va ota-onalarning vazifasiga kiradi. Eshitishda nuqsoni bor bolaga qancha erta tashxis qo'yilsa, nuqsonni erta korreksiyalansa tezroq ijobiy natija beradi. Koxlear implant u boshqalarning nutqini eshitish va tushunishni, o'zi gapirishni, muloqot va bilish uchun nutqdan foydalanishni o'rganadi. Bu oddiy eshitadigan bola sifatida rivojlanadi. Koxlear implant operatsiyasi murakkab jarayon hisoblanadi. Operatsiya jarayonida bir nechta mutaxassislar ishtirok etadi. Zaif eshituvchi bolalarda lug'at boyligi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, va shu o'rinda R M. Boskis, A.G. Zikeyeva, K .G Korovina va boshqalar tadqiqotiga muvofiq, zaif eshituvchilar uchun lug'at boyligining nihoyatda chegaralanganligi xarakterlidir. Zaif eshituvchi bolalarda mavjud lug'at boyligining chegaralanganligi so'zlarni noaniq qo'llashga, olib keladi va buning natijasida gaplarda so'zlarni noto'g'ri qo'llash, so'zlarni tushurib qoldirish, bir tovushni o'rniga boshqa tovushni qo'llash hodisalari ko'p uchraydi. Bolaga koxlear implant apparati o'rnatilgandan so'ng reabilitatsion ishlarga quyidagilar kiradi:

- ✚ Bolaga tovushlarning turli xususiyatlarni farqlash o'rgatish.
- ✚ Eshitish qobiliyati va nutqni rivojlantirish.
- ✚ tevarak-atrofdagi olamni idrok etish (ob'ektlar va ularning qismlarining xossalari va funksiyalari haqidagi g'oyalar, hodisalar haqidagi tasavvurlar, ob'ektlar va hodisalarning fazoviy va vaqtinchalik munosabatlari);
- ✚ Koxlear ipmlantli bolada o'gzaki nutqini shakllantirish.
- ✚ Noaniq va tushunarsiz tovushlar ustida turli xil ishlar olib borish.
- ✚ Bola bilan logopedik mashg'ulotlar o'tayotgan vaqtda albatta ota-onasini ham jalb qilish va suxbat o'tqazish kerak.
- ✚ hissiy-irodaviy soha (bolaning o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan vazifani bajarish, qiyinchiliklarni engish, o'z xohish-istaklarini tiyish va boshqalarning manfaatlarini hisobga olish va qobiliyatini shakllantirish).
- Nutqning grammatik tomonlari, talaffuzdagi kamchiliklar so'zlarni bog'inlash, tovushlarni aniqlay olish ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini olib borish.

Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsion ishlarning maqsadi og'zaki va og'zaki bo'lmagan tovush signallarini idrok etishni o'rgatish, va nutqni rivojlantirishdir. Operatsiyadan keying reblitatsion jarayonda quyidagi mutaxassislar ishtirok etishlari lozim: audiolog, nutq terapevtlari, psixologlar, surdopedagog va logoped. Koxlear implantatsiyadan keyin bolalarda eshitish idrokini rivojlantirishda shuni yodda tutish kerak: signal berishdan oldin



bolaning eshitish va vizual e'tiborini jalb qilish kerakKo'pgina hollarda, koxlear implantatsiya paytida yosh bolalarning nutqi umuman yo'q yoki ongsiz shovqin bilan ifodalanadi. Nutq protsessorini ishga tushirgandan so'ng og'zaki nutqni shakllantirish bo'yicha ishlar jadal rivojlanayotgan eshitish idroki, atrofimizdagi dunyo haqidagi g'oyalarni rivojlantirish (turli narsa va hodisalar, ularning xususiyatlari va funktsiyalari haqida g'oyalar) va shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Bolada vokal va artikulyar taqlid qilish qobiliyati. Yo'naltirilgan nutqqa, turli nutq birliklarini tanib olishga va tushunishga eshitish-vizual e'tiborni shakllantirish jarayonida o'qituvchi ushbu so'zlarni qayta-qayta talaffuz qiladi, ularni tegishli ob'ektlar bilan bog'laydi. Asta-sekin, bola o'qituvchidan keyin talaffuz qilingan tovushlarni eng ko'p artikulyar bo'lganlardan boshlab takrorlashga harakat qiladi. Avvalo, bolaning og'zaki muloqotga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirish kerak. O'quv jarayonida yozish va o'qish (global, bo'g'in) qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytamanki,xozirgi kunda eshitishda nuqsoni bulgan bolalarning tobora soni ko'payib bormoqda,Nuqsonli bolada nuqsoni qancha erta aniqlansa va reabilitatsion ishlar qancha erta olib borilsa shuncha yaxshi samara beradi. Mamlakatimizda **barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning** ruhiy jarayonlarining rivojlanishini, ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. Bolaning nutqi va eshitishining rivojlanishi bevosita uning psixofizik rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun, koxlear implantatsiyadan keyin yosh bolalar bilan og'zaki bo'lmagan funktsiyalarni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi PQ-2133-son qarori.
2. M.U.Xamidova maxsus pedagogika (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma) Toshkent -2018
3. M.Y.Ayupova "Logopediya "Darslik o'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti tashkent 2007